

Date: 3rd December-2024

PEDAGOGIK FAOLIYATDA BOLALAR XOTIRASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK USHLBLARI

Sharapova Dildora Baxtiyorovna

International school of finance technology and science instituti katta o'qituvchisi,
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

Avazova Ziyoda Anvar qizi

International school of finance technology and science instituti, Pedagogika
yo'nalishi, 1-kurs, 24-PD-01 guruhi talabasi

Annotatsiya: Bolalar xotirasini yaxshilash, uni rivojlantirish ko'p jihatdan ota-ona va o'qituvchilarga qo'yilgan muhim vazifalardan biridir. Xotirani rivojlanishida atrof-muhit, sport, ovqatlanish ratsioni, hattoki ta'lim olish muhiti ham katta ahamiyatga ega. Kichik yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati o'yin tarzida bo'ladi. Shu sababli ularning xotirasini turli hil o'yinlar orqali rivojlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu bilan birga ushbu maqolada inklyuziv ta'lim olayotgan, xotirasida nuqsoni bor bolalarga ham pedagogik uslublar orqali yondashish bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Mnemonika, qisqartmalar, xotira o'yinlari, mexanik xotira, Glen Doman va Montessori usullari.

Аннотация: Улучшение детской памяти и ее развитие – одна из важнейших задач, возложенных на родителей и педагогов. Большое значение в развитии памяти имеют окружающая среда, спорт, диета и даже образовательная среда. Основная деятельность детей раннего возраста проходит в форме игры. Поэтому уместно развивать память с помощью различных игр. В то же время в данной статье описан подход к детям с нарушениями памяти посредством инклюзивного образования педагогическими методами.

Ключевые слова: Мнемотехника, сокращения, игры на память, механическая память, методы Глена Домана и Монтессори.

Abstract: Improving children's memory and its development is one of the most important tasks assigned to parents and teachers. The environment, sports, diet and even the educational environment are of great importance in the development of memory. The main activity of young children takes place in the form of play. Therefore, it is appropriate to develop memory with the help of various games. At the same time, this article describes an approach to children with memory impairments through inclusive education using pedagogical methods.

Keywords: Mnemonics, abbreviations, memory games, mechanical memory, Glenn Doman and Montessori methods.

Kirish. Xotirani rivojlanishga oid turli nazariyalar keltirilgan bo'lib bulardan biri mnemonika haqidagi nazariyalaridir. Mnemonika-o'xshashlik va bog'liqlik asosida xotira hajmini kengaytirish, xotiramizda ma'lumotlarni oson eslab qolish uchun ishlab chiqilgan maxsus uslublar to'plami [1]. Pedagogik jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, bolalarda



Date: 3rdDecember-2024

mnemonika orqali xotira jarayonini rivojlantirish yaxshi samaraberadi. Masalan, o'qituvchilar bolalarga muhim ma'lumotlarni eslab qolishga yordam berish uchun mnemonikadan foydalanishlari mumkin. Misol qilib aytsek, bola tabiiy fanlar darsligidan Markaziy Osiyo davlatlarini yodlashi kerak. Bunda qisqartmalardan foydalangan holda O'QQTTA (O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Avg'oniston) kami oson tarzda xotiraga saqlash mumkin. Yana biri har kuni xotira o'yinlarini o'ynash orqali bolaning zehni rivojlanib boradi. Masalan, bolalarga biror hayvonni tasvirlab, eshitganlari haqida birozdan keyin so'rang. Bu mashq u uchun biroz qiyinchilik tug'dirsa, hayvonlar rasmini ko'rsatib, ularning tovushi, harakatlari to'g'risida ma'lumot bering. Bolalardan so'zlaganlaringiz haqida so'rab olishni unutmang.

Asosiy qism. Bolalarda xotira tug'ma bo'lmaydi. Uni faqatgina mashqlar orqali mustahkamlash va rivojlantirish mumkin. Shunday ekan, farzandlarning kuchli xotiraga ega bo'lishi ularning ota-onalari va atrof-muhitga ham bog'liqdir. Kichik yoshdagi bolalarda asosan rangli buyumlarga qiziqish yuqori va qabul qilish doirasi ham keng bo'ladi. Asosan 2-3 yoshlarda bolalar rangli o'yinchoqlar orqali sanashni, hayvonlarni ajratishni o'rganishadi. Shu bilan birga bolalarda mexanik xotirani kuzatish mumkin. Sababi maktab yoshigacha bo'lgan bolalarda qabul qilish koeffitsienti yuqori bo'ladi va tez xotirasiga saqlay oladi. Keyinchalik mexanik xotira asta-sekin mantiqiy xotiraga ko'chadi. Bola yoshi ulg'aygani sayin mantiqiy fikrlashni boshlaydi. Hozirgi zamonning tez rivojlanishida bolalar har kuni ko'plab axborotlarga duch kelishi mumkin. Bunda kerakli ma'lumotlarni xotirasiga saqlashda ota-ona va ustoz ko'makchi bo'ladi. Maksimal darajaga erishish uchun bolaning yoshiga qarab tanlangan va tasdiqlangan usullar, mashqlar yordamida xotirani kuchaytirish kerak. Ulardan eng mashhurlari Glen Doman va Montessori usullaridir. Doman usuli taxminan 6 oylikdan 3-4 yosg'lgacha mo'ljallangan. Usulning mohiyati shundaki, bolalarga sarlavhali tasvir ko'rsatiladi va so'zlar aytiladi. Har bir dars bir necha daqiqa davom etadi. Bu mashqni bolalar bilan kuniga 3-5 marta takrorlashingiz kerak. Doman usuli bir qator xususiyatlarga ega:

- Darslar qulay sharoitda o'tkaziladi;
- O'qitish materiallaridan foydalanish;
- O'quv jarayoni muntazam va uzluksiz bo'lishi kerak;

Faoliyat bola charchab, harakat qilishni boshlashdan oldin to'xtatiladi. Montessori tizimiga ko'ra xotira va diqqatni rivojlantirish, ota-onalar bolaga belgilangan chegaralar ichida erkinlik berishi kerak [3]. Bu shuni anglatadiki, bola o'zini hozirda nima qilishini o'yin mashqlari uchun mavjud variantlardan tanlaydi. 5-6 yoshlarda asosan Doman texnikasi so'zlarni yodlash uchun ham, o'yin uchun ham qo'llaniladi. Misol uchun siz boladan kartalar orasidan qo'shimcha element topishini so'rasangiz yoki ba'zi xarakteristikalar asosida rasmlarni guruhlarga birlashtirishingiz mumkin.

Bolalar xotirasini rivojlantirishdagi yana bir muhim omillardan biri sport bilan shug'ullanishdir. Sport mashqlari va har qanday jismoniy faoliyat vosita ko'nikmalari rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek miya yarim korteksini kislorod bilan ta'minlashni yaxshilaydi. Masalan oddiy velosipedda yurish, konkida uchish, suzish kabi sport turlari ham miya faolligini oshiradi. Xotirani rivojlanishida yana bir muhim jihat



Date: 3rdDecember-2024

ularga miya yarim sharlarin j rag‘batlantiradigan oziq -ovqatlar berishdir. Masalan, qizil ikra, yog‘li baliqlar, tuxum, yong‘oq, yashil sabzavotlar va banan foydalidir [3]. Xotira va u bilan bog‘liq jarayonlar nerv hujayralari va ulardan tashkil topgan nerv yadrolari faoliyati hisoblanib, ushbu vazifa qayd qilingan hujayralarning kislorod va tegishli oziq moddalari bilan ta‘minlanish darajasiga bog‘liq. Agar bu borada muammo bo‘lmasa, ular o‘z faoliyatini bemalol bajaraveradi. Bolalarda uyqu ham normal holatda bo‘lishi kerak. Bolalarni uyqudan uyg‘onganda kuzatadigan bo‘lsak, xotira bilan bog‘liq funksiyalar, masalan kechagi biror bir voqeani aytib berishi ancha qiyin bo‘ladi. Sababi — odam uzoq vaqt qimirlamasdan to‘shakda yotganida miyaga qon borishi kamayadi, shu bois nerv hujayralaridan iborat nerv markazlari ishida susayish kuzatiladi. Shu sababli bolalarga uyqudan uyg‘onganda birozdan keyin xotira mashqlarini birgalikda bajarish zarur. Miyamiz 20% kislorodning hammasini iste‘mol qiladi. Shuning uchun ham tez-tez toza havodan bahra olish miyaningfaol ishlashini ta‘minlaydi. Miyamizning deyarli 80%i suvdan tashkil topgan. Shuning uchun doimo suv ichib turish darkor, suv chin ma‘noda obi hayot degani.

Pedagogik faoliyatda har bir bolani ong va xotirasini rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi. Shu o‘rinda inklyuziv ta‘lim olayotgan. sog‘lig‘ida muammosi bor bolalar bilan ham xotira jarayonini rivojlantirish ustida ishlash zarur. Ularda osonroq ko‘rinishda xotira mashqlarini o‘ynatish, ongni rivojlantirish, kerakli ma‘lumotlarni eslab qolishga qiziqish uyg‘otish zarur. Inklyuziv ta‘limda bolalarga amaliy mashg‘ulotlar orqali bilim berish, ular ham kelajakda bir kasb egasi bo‘lishlarida albatta pedagoglarning ham o‘rni katta. Eshitishi pastroq bo‘lgan bolalarga qo‘l harakatlari bilan yodiga tushirish, ko‘rishda muammosi bor bolalarga nazariy taraflama yondashgan maqul. Aqliy jihatdan zaif bolalar xotira va psixologiyasini rivojlantirishga B.I.Pinskiy, J.I.Shif, G.M.Dulnev. S.R.Rubinshteyn kabi olimlar katta hissa qo‘shgan.

Xulosa. Bola maktab ostonasiga qadam qo‘yarkan unda ijtimoiylashuv, atrof-muhit bilan o‘zaro munosabat shakllana boshlaydi. Albatta bunda xotira jarayoni katta rol o‘ynaydi. Shu sababli dars jarayonlari qiziqarli, mantiqan puxta tuzilgan bo‘lmog‘i zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shohruh Mirzo Rahmonov, Iskandar Sattibayev “So‘z yodlash sirlari”. 8-bet
2. Shohruh Mirzo Rahmonov “Mukammal xotira”. 20-21 bet.
3. <https://bolalar.olami.uz>
4. <https://abacus-center.ru>.
5. Baxtiyarovna, S. D., Orzugul, Q., & Sarvinoz, M. (2024). XORIJIY TILLARNI O‘RGANUVCHI O‘SPIRINLARDA OG‘ZAKI VA YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI. Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies., 1(2), 22-26.
6. Baxtiyarovna, S. D., Nilufar, O., & Dildora, M. (2022). O‘QITUVCHINING TARBIYACHI SIFATIDAGI KASBIY PEDAGOGIK MAHORATI. Scientific Impulse, 1(3), 393-396.



Date: 3rdDecember-2024

7. Erkinjon o'g'li, M. N. (2023). RAHBAR FAOLIYATIDA IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNING BOSHQARUV JARAYONIGA TA'SIRI. Journal of new century innovations, 28(3), 156-159.
8. Ziyat, O., & Nafosat, S. (2023). PSIXOLOGIYADA ONG VA ONG HAQIDAGI NAZARIYALAR. Scientific Impulse, 1(8), 857-860.
9. Hasanboy, A. (2023). Socio-psychological problems of children in migrant families and their solutions. In BIO Web of Conferences (Vol. 65, p. 06005).
10. Нуралиева, Д., & Абдусаматов, Х. (2021). Социально-психологические особенности услуг для разводящихся семей. Общество и инновации, 2(10/S), 493-498.

